


VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)


Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni (1- yanvar holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni (2022- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga 37758 tari tashkil etib, ulardan 36168 tasi yoki 95,8 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 6641 taga yoki 21,3 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida davomida viloyatimizda 9747 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3831 taga ko‘pdir.

**Ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy
faoliyat turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi**
(2022- yil 1- yanvar holatiga)

	<i>Ro‘yxatga olinganlar</i>	<i>Faoliyat ko‘rsatayotganlar</i>		
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	37758	100,0	36168	100,0

shu jumladan:

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	7038	18,6	6748	18,7
Sanoat	4956	13,1	4727	13,1
Qurilish	3493	9,3	3371	9,3
Savdo	10553	27,9	10073	27,9
Tashish va saqlash	984	2,6	961	2,7
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1885	5,0	1744	4,8
Axborot va aloqa	456	1,2	443	1,2
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	799	2,1	770	2,1
Boshqa turdagи xizmatlar ko‘rsatish	7594	20,2	7331	20,2

Korxona va tashkilotlar soni

	2022- yil 1- yanvar holatiga ro‘yxatga olingan	2021- yil yanvar-dekabr oylarida	
		tashkil topdi	tugatildi

Viloyat bo‘yicha: **37758** **9747** **3099**

shaharlar:

Qarshi	7441	1565	477
--------	------	------	-----

Shahrisabz

Shahrisabz	2099	530	292
------------	------	-----	-----

tumanlar:

G‘uzor	1904	553	135
--------	------	-----	-----

Dehqonobod

Dehqonobod	1733	423	164
------------	------	-----	-----

Qamashi

Qamashi	2566	775	271
---------	------	-----	-----

Qarshi

Qarshi	2719	624	252
--------	------	-----	-----

Koson

Koson	2908	700	194
-------	------	-----	-----

Kitob

Kitob	2697	763	178
-------	------	-----	-----

Mirishkor

Mirishkor	1447	433	75
-----------	------	-----	----

Muborak

Muborak	1300	342	119
---------	------	-----	-----

Nishon

Nishon	1653	425	65
--------	------	-----	----

Kasbi

Kasbi	1707	527	142
-------	------	-----	-----

Chiroqchi

Chiroqchi	3142	825	268
-----------	------	-----	-----


Shahrisabz

Shahrisabz	1862	512	244
------------	------	-----	-----


Yakkabog‘

Yakkabog‘	2580	750	223
-----------	------	-----	-----


Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- yanvar holatiga)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- dekabr oylarida)**



**Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)**




Mas’uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyat mas’uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlarini qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.


Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagani qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)**



2022- yil 1- yanvar holatiga 31330 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9657 ta, oilaviy korxonalar – 4235 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16739 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 43 ta, unitar korxonalar – 117 ta va boshqalar – 539 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)**



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 9747 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 martaga ko'pdir.

Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 4838 ta, oilaviy korxonalar 2587 ta, xususiy korxonalar 1915 ta, muassasalar 188 ta va boshqalar 219 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga 4546 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2169 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4235 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1929 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 311 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 240 taga oshganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2021- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Chiroqchi (339 ta), G'uzor (338 ta), Qarshi (334 ta), Shahrisabz (325 ta), Qarshi shahri (284 ta), Kitob (236 ta), Mirishkor (144 ta), Koson (135 ta), Dehqonobod (123 ta), Muborak (87 ta), Shahrisabz shahar (65 ta), Yakkabog' (64 ta) va Qamashi (56 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Nishon (37 ta), Kasbi (20 ta) tumanlari korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2022- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga 17343 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3767 taga yoki 27,7 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16739 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3517 taga yoki 26,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4838 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1501 taga yoki 45,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni (1- yanvar holatiga, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Qarshi shahrida 23,8 %, Koson 10,7 %, Qamashi 8,5 %, Chiroqchi 7,5 %, Yakkabog' 7,2 %, Qarshi 6,1 %, Kasbi 5,2 %, Mirishkor 5,0 %, Kitob 4,8 %, Nishon 4,5 %, Muborak 4,2 %, G'uzor 4,0 %, Shahrisabz shahrida 3,8 %, Shahrisabz 3,1 %, Dehqonobod tumanlarida 1,6 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo‘shma korxona</i>	<i>Xorijiy korxona</i>
Qashqadaryo viloyati	237	162	75
G‘uzor	11	8	3
Dehqonobod	15	11	4
Qamashi	13	9	4
Qarshi	17	11	6
Koson	23	14	9
Kitob	17	11	6
Mirishkor	7	5	2
Muborak	9	5	4
Nishon	17	13	4
Kasbi	8	5	3
Chiroqchi	12	10	2
Shahrisabz	6	3	3
Yakkabog‘	14	8	6
Qarshi sh.	61	46	15
Shahrisabz sh.	7	3	4

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, foizda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma’lumotlani 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘rsak eng ko‘p sanoatda 110 ta (46,4 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 48 ta (20,3 %) hamda savdoda 39 ta (16,5 %), qurilishda 12 ta (5,1 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda mos ravishda 9 ta (3,8%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlash 4 ta (1,7 %), sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 6 ta (2,5%), axborot va aloqa 1 ta (0,4 %) ni tashkil qilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi faoliyat turiga to‘g‘ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqada, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, tashish va saqlash faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

**Kichik tadbikorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(1- yanvar holatiga, birlikda)**



**Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan
kichik korxona va mikrofirmalar soni
(1- yanvar holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>mikrofirmalar</i>	<i>kichik korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	31 152	29 920	1 232
G‘uzor	1 566	1 504	62
Dehqonobod	1 372	1 353	19
Qamashi	2 177	2 123	54
Qarshi	2 262	2 169	93
Koson	2 498	2 443	55
Kitob	2 273	2 165	108
Mirishkor	1 185	1 163	22
Muborak	1 050	1 018	32
Nishon	1 356	1 305	51
Kasbi	1 408	1 356	52
Chiroqchi	2 559	2 485	74
Shahrisabz	1 468	1 418	50
Yakkabog‘	2 091	2 032	59
Qarshi sh.	6 127	5 721	406
Shahrisabz sh.	1 760	1 665	95

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomalar usidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko‘rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faoliyotdarajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdag'i "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- yanvar holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.